



UDK: 1:316.334.55

Bobomurod ABDULLAYEV,
Qo'riqlash bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i

TDTrU.f.d. prof. J.Ramatov taqrizi asosida

KORRUPSIYA TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TALQINI VA TARIXIY SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada korruptsiya fenomeniga ijtimoiy-falsafiy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil beriladi. Unga jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha mazmun berilgani, uning mohiyati, ildizlari va shakllanish dinamikasi yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda korruptsiyaning barqaror rivojlanishga salbiy ta'siri falsafiy nuqtayi nazardan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Korruptsiya, ijtimoiy ong, falsafa, qadriyatlar tizimi, adolat, tarixiy taraqqiyot, davlatchilik.

SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION AND HISTORICAL FORMATION OF THE CONCEPT OF CORRUPTION.

Annotation

This article analyzes the phenomenon of corruption from the point of view of a socio-philosophical approach. It is explained that it is given different meanings at different stages of social development, its essence, roots and dynamics of formation. Also, the negative impact of corruption on sustainable development in modern society is explained from a philosophical point of view.

Key words: Corruption, social consciousness, philosophy, value system, justice, historical development, statehood.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ИСТОРИЧЕСКОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ПОНЯТИЯ КОРРУПЦИИ.

Аннотация

В статье анализируется феномен коррупции с точки зрения социально-философского подхода. Показывается, что на разных этапах общественного развития ему придавалось разное значение, раскрываются его сущность, корни и динамика формирования. Также с философской точки зрения объясняется негативное влияние коррупции на устойчивое развитие современного общества.

Ключевые слова: Коррупция, общественное сознание, философия, система ценностей, справедливость, историческое развитие, государственность.

Kirish. Korruptsiya bugungi kunda eng dolzarb global muammolardan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotiga, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga hamda huquq ustuvorligiga jiddiy zarar yetkazadi. Har bir jamiyatda korruptsiya o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lsa-da, uni vujudga keltiruvchi umumiy omillar mavjud. Ushbu bo'limda korruptsiya tushunchasi, uni keltirib chiqaradigan sabablar va ular o'rnatadigan o'zaro bog'liqlik olimlar qarashlariga tayangan holda, sodda tilda tahlil qilinadi.

Korruptsiya – bu mansab yoki lavozim vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishdir. Uning eng ko'p uchraydigan shakllariga pora olish, xizmat evaziga noqonuniy imtiyoz berish, nepotizm (qarindosh-urug'larni ishga joylashtirish) hamda davlat resurslaridan shaxsiy maqsadlarda foydalanish kiradi. Bunday harakatlar nafaqat qonunbuzarlik, balki jamiyatning axloqiy-me'yoriy asoslarini buzuvchi illat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, korruptsiya har qanday davlat va jamiyat uchun xavfli ijtimoiy hodisa sanaladi.

Korruptsiyaning yuzaga kelish sabablari turlicha bo'lsa-da, ularni "korruptsiyaviy omillar" deb ataluvchi umumiy guruhlariga ajratish mumkin. Ulardan eng muhimlaridan biri — huquqiy muhitdagi noaniqlik va sustlikdir. Agar qonunlar chalkash, ziddiyatli yoki turlicha talqin qilinadigan bo'lsa, bu ulardan suiste'mol qilishga keng yo'l ochadi. Ayniqsa, sud tizimi mustaqil emas yoki jazo muqarrarlari prinsipi to'liq amal qilmasa, amaldorlar jazodan qo'rqmasdan korruptsiya harakatlarga qo'l uradilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida shunday degan edi:

"Korruptsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, 'halollik vaksinasi' bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korruptsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak."

Ushbu fikr korruptsiyaga qarshi kurashda axloqiy va ijtimoiy ongning o'rni naqadar muhim ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Darhaqiqat, hozirgi kunda O'zbekiston taraqqiyot yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi halollik, rostgo'ylik va adolat tamoyillariga tayanadi. Bu qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy-falsafiy poydevorini mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Korruptsiyaning shakllanishida tashkiliy-siyosiy omillar ham muhim o'rin tutadi. Davlat boshqaruvida tizimning yopiq bo'lishi, fuqarolik jamiyatining zaifligi va jamoatchilik nazoratining sustligi — bular korruptsiya uchun eng qulay muhitni yaratadi. Siyosiy raqobatning yetishmasligi, nazorat organlarining mustaqil bo'lmashligi va qarorlarning faqat yuqori pog'onalarda qabul qilinishi korruptsiya jarayonlarining ildiz otishiga zamin yaratadi.

Amerikalik tadqiqotchi R. Klitgaard ham o'z asarlarida bu fikrni tasdiqlaydi. Unga ko'ra, agar siyosiy tizim yopiq bo'lsa, hisobdorlik mexanizmlari zaif va oshkoralik tamoyili yetarli darajada qaror topmagan bo'lsa, korruptsiya muqarrar tarzda yuzaga keladi. Shunday ekan, korruptsiyaning ildizini faqat shaxsiy manfaatparastlik yoki huquqiy bo'shliqlar bilan izohlab bo'lmaydi.

Bu hodisa aslida siyosiy tizimdagi nomutanosibliklar, institutsional zaiflik va siyosiy irodaning sustligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimida mavjud tashkiliy-siyosiy omillar korrupsiyaning kengayishiga, jamiyatda ishonchsizlik va befarqlik muhitining kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashda faqat ma'muriy yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki falsafiy, ijtimoiy va axloqiy yondashuvlar asosida tizimli islohotlar olib borish zarur. Chunki korrupsiya — bu nafaqat jinoyat, balki jamiyatning axloqiy va ma'naviy immunitetini zaiflashtiruvchi ijtimoiy illatdir. Rossiyalik huquqshunos Y.A.Tixomirov bu holatni “davlat boshqaruvi tizimida huquqning zaif ishlashi” bilan izohlaydi. Uning fikricha, qonunchilikdagi noaniqliklar, tartibga solinmagan amaliyot va jazo muqarrarligining yo'qligi korrupsiyaning rivojlanishiga imkon yaratadi. Darhaqiqat, davlat boshqaruvida huquq ustuvorligi tamoyilining yetarlicha qaror topmaganligi korrupsiyaning chuqurlashuviga zamin bo'ladi.

Xususan, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, ularning turlicha talqin qilinishi, amaliyotda tartibga solinmagan masalalarning mavjudligi va jazo muqarrarligining zaifligi korrupsiyaning keng tarqalishiga qulay sharoit yaratadi. Tixomirov ta'kidlaganidek, qonunlar hayotga tatbiq etilayotganda ular aniq, tushunarli va amaliy jihatdan qo'llashga yaroqli bo'lishi lozim. Aks holda, davlat xizmatchilarining qarorlari subyektiv yondashuv asosida belgilanadi, bu esa pora olish va xizmat vakolatini suiiste'mol qilish kabi jinoyatlarning ko'payishiga olib keladi. Demak, davlat boshqaruvida “huquqiy noaniqlik” muhiti mavjud bo'lsa, u korrupsion xavflarni yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, qonunbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan chora ko'rilmaligi yoki jazolashdagi uzilishlar ham korrupsiya ildiz otishining muhim sabablaridandir. Chunki jazo muqarrarligi prinsipining amalda ishlamasligi huquqbuzar shaxslarda “jazodan qutulib qolish mumkin” degan noto'g'ri ishonchni shakllantiradi. Bu esa korrupsion xatti-harakatlarning davom etishiga zamin yaratadi.

Misol tariqasida, davlat boshqaruvi tizimida amaldorlarning o'z xizmat vakolatlarini to'liq bajarmasligi, qaror qabul qilish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi yoki tender va davlat xaridlari jarayonlarida oshkoralikning yetishmasligi — huquqning zaif ishlashidan dalolat beradi. Natijada, bunday vaziyat fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini pasaytiradi, qonunga bo'lgan hurmatni susaytiradi hamda jamiyatda befarqlik muhitining kuchayishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, huquqning samarasiz ishlashi nafaqat korrupsiyani kuchaytiradi, balki davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini pasaytiradi va institutsional zaifliklarni kuchaytiradi.

Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashda muhim strategik yo'nalishlardan biri — huquqiy tizimni mustahkamlash, qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularning amalda to'liq ijro etilishini ta'minlashdir. Zero, huquq faqat qog'ozda emas, balki amaliyotda ham real ishlasa, u korrupsiyaga qarshi eng kuchli to'siq bo'la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Korrupsiya hodisasini o'rganishda kompleks yondashuv zarur. Chunki u nafaqat huquqiy yoki iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu bois tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Nazariy-metodologik asoslari. Tadqiqotning nazariy poydevorini korrupsiya fenomeniga oid falsafiy, sotsiologik va siyosatshunoslik nazariyalari tashkil etadi. Asosiy nazariy manbalar sifatida quyidagilar olindi: R. Klitgaardning “Controlling Corruption” (1988) asari — korrupsiyani institutsional tahlil nuqtayi nazaridan o'rganish uchun; S. Rose-Ackermannning “Corruption and Government” (1999) asari — korrupsiyaning siyosiy va madaniy ildizlarini

yoritish uchun; A.Shleifer va R. Vishnyning “Corruption” (1993) maqolasi — iqtisodiy va boshqaruv omillari tahlili uchun; Shuningdek, mahalliy olimlar (Sh.Qurbonov, A.Erkaev, O.Qosimov va boshqalar)ning korrupsiyaning ijtimoiy-axloqiy mohiyati haqidagi fikrlari tahlil etildi.

Nazariy asos sifatida ijtimoiy tizimlar nazariyasi, axloq falsafasi, institutsionalizm va qadriyatlar falsafasi konsepsiyalari qo'llanildi. Mazkur ishda falsafiy-sotsiologik yondashuv asos qilib olindi. Ya'ni, korrupsiya ijtimoiy tizimning ma'naviy va axloqiy buzilishi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, tarixiy voqealar tahlili orqali korrupsiyaning evolyutsion shakllanishi o'rganildi.

Yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslandi: Tarixiylik tamoyili — korrupsiyaning turli davrlardagi ijtimoiy sharoitlarda qanday namoyon bo'lganini aniqlash; Tizimlilik tamoyili — korrupsiyani siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilish; Qiyosiy tahlil tamoyili — turli mamlakatlarda korrupsiyaning sabablari va unga qarshi kurash tajribalarini solishtirish.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Falsafiy tahlil — korrupsiyaning mohiyatini, inson axloqi va ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi o'rni aniqlash uchun;

Tarixiy-uslubiy tahlil — korrupsiyaning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va rivojlanish dinamikasini o'rganish uchun;

Mantiqiy umumlashtirish — turli manbalardagi nazariy fikrlarni tahlil qilib, umumiy xulosalar chiqarish uchun;

Qiyosiy tahlil — xorijiy va mahalliy tajribalarni solishtirish hamda korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarining samaradorligini baholash uchun;

Kontent-tahlil — rasmiy hujjatlar, qonunlar, prezident farmonlari, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarini tahlil qilish orqali.

Korrupsiya — bu nafaqat huquqiy yoki iqtisodiy muammo, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan hodisadir. U insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlatchilik va jamiyat munosabatlarining murakkab jarayonlarida shakllangan. Zamonaviy falsafa nuqtayi nazaridan, korrupsiya jamiyatning ma'naviy qiyofasi va qadriyatlar tizimining buzilishi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Korrupsiya tushunchasining mohiyati va ijtimoiy-falsafiy mazmuni. “Korrupsiya” atamasi lotincha corruptio — “buzilish”, “talon-toroj qilish” so'zidan kelib chiqqan. Falsafiy jihatdan olib qaralganda, korrupsiya — bu shaxsiy manfaatni jamoaviy manfaatdan ustun qo'yish orqali ijtimoiy munosabatlarning izdan chiqishi, ya'ni “axloqiy tartibning buzilishi” holatidir.

Ijtimoiy ong nuqtayi nazaridan korrupsiya jamiyatdagi ishonch institutlarining yemirilishiga, adolat prinsipining so'nishiga va insoni qadr-qimmatining qadrsizlanishiga olib keladi. Shu bois u faqat huquqiy jinoyat emas, balki axloqiy va madaniy inqirozning belgisidir.

Korrupsiya ildizlari qadimgi davlatchilik tizimlariga borib taqaladi.

Qadimgi Misr va Bobil davrida amaldorlar tomonidan mansabni shaxsiy boylik manbaiga aylantirish holatlari qayd etilgan.

Aflotun va Aristotel davlat boshqaruvidagi adolat va poklik masalalarini muhokama qilar ekan, korrupsiyani davlatning inqiroz belgisi sifatida ta'kidlagan.

O'rta asrlarda korrupsiya diniy va siyosiy inqirozlar bilan bog'liq bo'lib, u feodal tizimdagi adolatsizlikni kuchaytirgan.

Industrial davrda, ayniqsa kapitalizmning shakllanishi bilan, korrupsiya iqtisodiy manfaatlar bilan chambarchas bog'landi va davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarda yangi ko'rinish oldi.

Shunday qilib, korrupsiya har bir tarixiy davrda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lgan bo'lsa-da, uning mohiyati — shaxsiy manfaatni umumiy manfaatdan ustun qo'yishda o'z ifodasini topgan.

Falsafiy nuqtayi nazardan, korrupsiyani ikki o'lchovda tahlil qilish mumkin:

Ontologik o'lchov — ya'ni korrupsiya jamiyatning "borliqdagi holati" sifatida. Bu holatda u tizimli illat bo'lib, siyosiy va madaniy munosabatlar tizimidagi nosog'lomlikni anglatadi.

Aksiologik o'lchov — ya'ni korrupsiya axloqiy qadriyatlarning inqirozi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda inson o'z vijdoni va jamiyat oldidagi mas'uliyatini yo'qotadi.

Korrupsiya faqat alohida shaxsning xatti-harakati emas, balki muayyan ijtimoiy muhitning natijasidir. Shu bois uning ildizini nafaqat qonunbuzarlikda, balki ma'naviyat va axloq tizimining zaiflashuvida izlash lozim.

Tahlil va natijalar. XXI asrda globallashtirish jarayonlari korrupsiyaning yangi shakllarini keltirib chiqardi.

Texnologik rivojlanish, axborot oqimining ortishi va iqtisodiy manfaatlar tizimi inson qadriyatlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Falsafiy jihatdan bu holat "ma'naviy relyativizm"ning kuchayishi bilan izohlanadi, ya'ni yaxshilik va yomonlik me'yorlari nisbiy tus oladi. Bu esa korrupsiyani "oddiy hayotiy strategiya" sifatida qabul qilish xavfini tug'diradi.

Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash faqat ma'muriy choralar bilan cheklanmasligi, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya va jamoaviy ongni shakllantirishga qaratilgan falsafiy yondashuvni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Korrupsiya — ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir etuvchi ko'p qirrali falsafiy-ijtimoiy hodisadir. Uning bartaraf etilishi jamiyatda adolat, mas'uliyat, insof va shaffoflik kabi umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishi bilan bog'liq.

Falsafiy nuqtayi nazardan korrupsiyaga qarshi kurash — bu inson ongini poklash, ma'naviy madaniyatni yuksaltirish va jamiyatni adolatli rivojlanish yo'liga solish demakdir.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. // Manba: www.president.uz/uz/lists/view/3324
2. Aristotel. Siyosat. — Afina, b.z. avvali.
3. Aflotun. Davlat haqida. — Afina.
4. Weber, M. The Theory of Social and Economic Organization. — London, 1947.
5. Huntington, S. Political Order in Changing Societies. — New Haven: Yale University Press, 1968.
6. Quronov Sh. Falsafa va jamiyat taraqqiyoti muammolari. — Toshkent, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — 2021-yil.